



**QASHQADARYO VILOYATI
G'UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor shahri, Mustaqillik ko'chasi, 14-uy. Tel:75.552-13-60

2021 - yil 14 - oktabr

266-4-56-Q/21

G'uzor tuman hokimligi

**Voyaga yetmagan 2015 yil 15 aprelda tug'ilgan Mallayeva Laylo
Sherzod qizini vasiylikka berish to'g'risida**

Tuman hokimligi huzuridagi vasiylik va homiylik komissiyasining 2021 yil 29 iyuldagi 27-sonli G'uzor tumani A.Temur mahalla fuqarolar yig'ini A.Qaxxor ko'chasi 17 uyda yashovchi fuqaro Ismoilova Nilufar nabirasi Mallayeva Laylo Sherzod qizini vasiylikka berish to'g'risida"gi Xalq ta'limi bo'limi huzuridagi vasiylik va homiylik organining 2021 yil 07 iyundagi 89-sonli xulosalarini va boshqa taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, voyaga yetmaganning manfaatlarini ko'zlagan holda, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 21-bob, 173, 174 - moddalariga, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hokimligi huzuridagi vasiylik va homiylik komissiyasining 2021 yil 29 iyuldagi G'uzor tumani A.Temur mahalla fuqarolar yig'ini A.Qaxxor ko'chasi 17 uyda yashovchi fuqaro Ismoilova Nilufarga voyaga yetmagan 2015 yil 15 aprelda tug'ilgan Mallayeva Laylo Sherzod qizini vasiylikka berish to'g'risida"gi 27-sonli xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Voyaga yetmagan 2015 yil 15 aprelda tug'ilgan Mallayeva Laylo Sherzod qizini Ismoilova Nilufarga vaqtincha onasi kelgunga qadar vasiylikka berilsin.

3. Voyaga yetmagan 2015 yil 15 aprelda tug‘ilgan Mallayev Laylo Sherzod qizining barcha huquq va qonunuiy manfaatlarini himoya qilish hamda moddiy ta‘minlash Ismoilova Nilufarga yuklatilsin.

4. Fuqaro Ismoilova Nilufarga o‘z homiylik majburiyatlarini bajarish yuzasidan har yil yakunida vasiylik va homiylik organiga yozma hisobot berib borishi belgilab qo‘yilsin.

5. Tuman xalq ta‘limi bo‘limi mudiri R.Eshqobilova mazkur qarorning ijrosini ta‘minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



Б.Суюнов